

OPEN INSURANCE VA API TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH

DEVELOPING THE DIGITAL ECOSYSTEM OF UZBEKISTAN'S INSURANCE MARKET BASED ON OPEN INSURANCE AND API TECHNOLOGIES

¹**Xakimzoda Maftuna**
Yusuf qizi

¹PhD, Toshkent xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi.
ORCID: 0009-0009-0807-2563, **G-mail:** maftuna_kh@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada O'zbekiston sug'urta bozorida Open Insurance va API texnologiyalari asosida raqamli ekotizimni shakllantirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Xorijiy tajriba va milliy sug'urta bozori holati tahlil qilinib, bozor ishtirokchilari o'rtasida standartlashtirilgan ma'lumot almashinuvini tashkil etishga qaratilgan Open Insurance-API integratsiya modeli taklif etilgan. Shuningdek, mazkur modelni bosqichma-bosqich joriy etish yo'nalishlari asoslangan.

Eng. - The article examines the possibilities of developing a digital ecosystem in the insurance market of Uzbekistan based on Open Insurance and API technologies. International experience and the current state of the national insurance market are analyzed, and an Open Insurance-API integration model aimed at ensuring standardized data exchange among market participants is proposed. The study also substantiates a phased approach to implementing the proposed model.

Kalit so'zlar: Keywords:

- ❖ *Open Insurance, API, InsurTech, sug'urta bozori, raqamli ekotizim, raqamli transformatsiya, interoperabellik, ma'lumotlar almashinuvi.*
- ❖ *Open Insurance, API, InsurTech, insurance market, digital ecosystem, digital transformation, interoperability, data exchange.*

Kirish.

Jahon sug'urta bozorida raqamli transformatsiyaning yangi bosqichi alohida xizmatlarni elektron shaklga o'tkazishdan sug'urta kompaniyalari, banklar, FinTech va InsurTech platformalari o'rtasida o'zaro bog'langan raqamli ekotizimlarni shakllantirishga tomon rivojlanmoqda. Ushbu jarayonda Open Insurance konsepsiyasi hamda API (Application Programming Interface) texnologiyalari sug'urta xizmatlarini tashqi raqamli platformalarga integratsiya qilish, ma'lumotlar almashinuvini standartlashtirish va mijozga yo'naltirilgan yangi xizmat

modellarini yaratishning muhim texnologik asosi sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda sug'urta bozorining jadal kengayib borayotgani mazkur texnologiyalarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning I-choragida sug'urta mukofotlari hajmi 4 016,99 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 52,7 foizga oshgan [1]. Bozor hajmining bunday o'sishi bilan bir qatorda sug'urta xizmatlarining tezkorligi, ma'lumotlar almashinuvi, raqamli sotuv kanallari va turli moliyaviy platformalar

bilan integratsiyasiga qo'yiladigan talab ham ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sug'urta bozorida Open Insurance tamoyillarini shakllantirish, standartlashtirilgan API infratuzilmasini yaratish hamda sug'urta kompaniyalari va boshqa raqamli xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi integratsion mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot Open Insurance va API texnologiyalarining iqtisodiy hamda tashkiliy imkoniyatlarini baholash va ular asosida O'zbekiston sug'urta bozorining raqamli ekotizimini rivojlantirish yo'nalishlarini asoslashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Open Insurance konsepsiyasining nazariy va amaliy asoslari xorijiy tadqiqotlarda asosan ma'lumotlar ochiqligi, API integratsiyasi, platformaviy biznes-modellar va mijoz roziligi asosida ma'lumot almashinuvi nuqtai nazaridan o'rganilgan. W. Standaert va S. Muylle Open Insuranceni sug'urta kompaniyalarining uchinchi tomon tashkilotlari bilan raqamli texnologiyalar orqali ma'lumot almashishi, yangi mahsulot va sotuv kanallarini shakllantirishi hamda biznes jarayonlari samaradorligini oshirishiga xizmat qiluvchi strategik model sifatida baholaydi. Mualliflar Yevropa sug'urta bozori mutaxassislari bilan o'tkazilgan tadqiqot asosida Open Insurance strategiyasining asosiy drayverlari, tashkiliy o'lchovlari va biznes samaradorligiga ta'sirini tizimlashtirgan [2].

European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA) tomonidan Open Insurance sug'urtaga oid shaxsiy va noshaxsiy ma'lumotlarni, odatda, API texnologiyalari orqali nazorat qilinadigan tartibda almashish tizimi sifatida talqin qilinadi. EIOPA tadqiqotida API standartlarini uyg'unlashtirish, ma'lumotlarning interoperabelligini ta'minlash, iste'molchi roziligi, axborot xavfsizligi va uchinchi tomon provayderlari

faoliyatini tartibga solish Open Insurance infratuzilmasini shakllantirishning muhim shartlari sifatida ko'rsatilgan [3].

L. Grassi Open Finance sharoitida sug'urta kompaniyalari uchun ma'lumotlarni olish imkoniyatining o'zi yetarli emasligini, balki mijozlarning o'z ma'lumotlarini almashishga tayyorligi hal qiluvchi omil ekanligini asoslaydi. 1501 nafar respondent ishtirokidagi empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, mijozlarning ma'lumot almashish qaroriga shaxsiylashtirilgan xizmatlar, riskning kamayishi hamda sug'urta mukofoti bo'yicha iqtisodiy manfaatlar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur yondashuv Open Insurance ekotizimida texnologik integratsiya bilan bir qatorda ma'lumotlardan foydalanishga rozilikni boshqarish mexanizmlarini ham shakllantirish zarurligini ko'rsatadi [4].

OECD tadqiqotlarida Open Finance doirasida ma'lumot almashish tizimlarini bank xizmatlaridan tashqari sug'urta, pensiya, investitsiya va boshqa moliyaviy xizmatlarga kengaytirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bunday ekotizimning samarali ishlashi uchun bozor ishtirokchilarining manfaatdorligi, mijozlarning tizimga bo'lgan ishonchi hamda ma'lumotlar va texnik infratuzilmaning minimal interoperabellik darajasi ta'minlanishi lozim. Shu jihatdan standartlashtirilgan APIlar Open Insurance bozorining texnologik infratuzilmasini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi [5].

G. Florin va M. Eling Open Insurance xizmatlarini iste'molchilar nuqtai nazaridan baholab, tizimning muvaffaqiyatli rivojlanishida ishonch omili alohida ahamiyatga ega ekanligini aniqlagan [6].

Braziliya Open Insurance tizimini amaliy jihatdan rivojlantirgan mamlakatlardan biri bo'lib, Superintendência de Seguros Privados (SUSEP) tomonidan ishlab chiqilgan API standartlari ma'lumotlar va xizmatlarni almashishning texnik mexanizmlarini belgilaydi [7].

G. Xalikulova va S. Kodirova O'zbekiston sug'urta bozorida raqamli ekotizimni shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tadqiq etib, sug'urta tashkilotlari, raqamli platformalar, FinTech subyektlari va boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarurligini asoslagan [8].

M. Xakimzoda InsurTech platformalarining O'zbekiston sug'urta bozoridagi raqamli transformatsiyaga ta'sirini o'rganib, zamonaviy platformalar orqali anderrayting, da'volarni boshqarish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va sug'urta mahsulotlarini sotish jarayonlarini integratsiyalash imkoniyatlarini tahlil qilgan. Tadqiqotda raqamli platformalar sug'urta kompaniyalarining operatsion xarajatlarini kamaytirish va yangi raqamli biznes-modellarni shakllantirish vositasi sifatida baholangan [9].

O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda Open Insurance'ning strategik modeli, ma'lumotlar almashinuvi, API standartlari, interoperabellik va iste'molchilar roziligini boshqarish masalalari nisbatan keng tadqiq etilgan. Mahalliy ilmiy ishlarda esa sug'urta bozorini raqamlashtirish, InsurTech platformalari va raqamli ekotizimlarni shakllantirish masalalari yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sug'urta bozori uchun Open Insurance tamoyillariga asoslangan standart API arxitekturasini, uning ishtirokchilari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi mexanizmi hamda uni bosqichma-bosqich joriy etish metodologiyasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy yo'nalishini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda Open Insurance va API texnologiyalarining iqtisodiy mazmunini ochib berish, ularning sug'urta bozoridagi o'rni hamda raqamli ekotizimni shakllantirish imkoniyatlarini baholash maqsadida kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish,

umumlashtirish, taqqoslash va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning Open Insurance, InsurTech, API integratsiyasi va raqamli sug'urta ekotizimlariga oid ilmiy qarashlari o'rganildi, xalqaro tajriba O'zbekiston sug'urta bozori amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida O'zbekiston sug'urta bozori uchun Open Insurance-API integratsiya modelini shakllantirish hamda uni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Open Insurance modelini O'zbekiston sug'urta bozoridagi shakllantirish masalasini baholashda bozorning miqyosi, mavjud raqamli integratsiya darajasi, xalqaro amaliyotdagi institutsional yondashuvlar hamda standartlashtirilgan API infratuzilmasini joriy etish imkoniyatlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiq. Open Insurance oddiy elektron sug'urta xizmatidan farqli ravishda sug'urtalovchilar, banklar, InsurTech va FinTech kompaniyalari, vositachilar hamda boshqa xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida mijozning roziligi asosida standartlashtirilgan ma'lumot almashinuvini tashkil etishni nazarda tutadi [3].

O'zbekiston sug'urta bozorining so'nggi ko'rsatkichlari sug'urta operatsiyalari hajmi va mijozlar bilan tuziladigan shartnomalar soni sezilarli ortib borayotganini ko'rsatadi. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil I-choragida jami sug'urta mukofotlari 4 016,99 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 52,7 foizga oshgan. Shu davrda sug'urta to'lovlari 643,64 mlrd so'mdan 838,18 mlrd so'mga, ya'ni 30,2 foizga ko'paygan [1].

1-jadval ma'lumotlari sug'urta bozoridagi nafaqat moliyaviy hajm, balki qayta ishlanishi lozim bo'lgan shartnomalar va tranzaksiyalar miqdori ham ortayotganini ko'rsatadi. Xususan, amaldagi shartnomalar sonining bir yil davomida 25,9 foizga ko'payib, 12 mln.dan

oshishi sug'urtalovchilarning alohida yopiq axborot tizimlari asosida faoliyat yuritish modelida ma'lumotlarni takroriy kiritish, mijozni qayta identifikatsiya qilish va hamkor tashkilotlar bilan ikki tomonlama integratsiyalar sonining ortishiga olib kelishi

mumkin. Shu sababli bozorning miqdoriy kengayishi API asosidagi standartlashtirilgan integratsiya mexanizmlariga ehtiyojni kuchaytiruvchi omil sifatida baholanishi mumkin.

1-jadval


O'zbekiston sug'urta bozorining ayrim ko'rsatkichlari, 2025-2026-yillarning I-choragi

Ko'rsatkich	01.04.2025	01.04.2026	O'zgarish
Jami sug'urta mukofotlari, mlrd so'm	2 630,5	4 017,0	+52,7%
Jami sug'urta to'lovlari, mlrd so'm	643,6	838,2	+30,2%
Amaldagi shartnomalar soni*, dona	9 565 621	12 039 624	+25,9%
Yangi tuzilgan shartnomalar soni*, dona	2 489 193	2 818 513	+13,2%
To'lov/mukofot nisbati, %**	24,5	20,9	-3,6 foiz band

*Izoh: shartnomalar soni umumiy sug'urta sohasi bo'yicha keltirilgan, **muallif hisob-kitobi.

Sug'urta mukofotlari o'sish sur'atining to'lovlar o'sishidan yuqori bo'lishi natijasida oddiy to'lov/mukofot nisbati 24,5 foizdan 20,9 foizgacha kamaygan. Mazkur ko'rsatkich sug'urta portfelining to'liq zarar koeffitsiyenti sifatida talqin qilinmaydi, biroq bozor moliyaviy oqimlarining tez kengayayotganini

ko'rsatadi. Bunday sharoitda polis rasmiylashtirishdan boshlab da'voni ko'rib chiqishgacha bo'lgan jarayonlarda ma'lumotlarni avtomatik almashish operatsion samaradorlik uchun tobora muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari va to'lovlari dinamikasi, 2025-2026-yillarning I-choragi (mlrd. so'mda) [1]

1-rasmdagi dinamika sug'urta mukofotlari hajmining bir yil ichida qariyb 1,4 trln so'mga ko'payganini ko'rsatadi. Bozor operatsiyalarining bunday tez sur'atlarda kengayishi raqamlashtirishni faqat sug'urta

polislarini elektron shaklda sotish bilan chegaralamaslik, balki sug'urta qiymati zanjirining barcha ishtirokchilarini o'zaro bog'laydigan texnologik infratuzilmaga o'tish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston sug'urta bozorida Open Insurance tizimining to'liq institutsional shakllanish jarayoni davom etayotgan bo'lsa-da, uning ayrim texnologik elementlarini joriy etish uchun muhim institutsional zamin shakllanmoqda. Xususan, 2026-yilda tasdiqlangan Sug'urta agentlari to'g'risidagi nizomga muvofiq, sug'urta agenti sug'urta shartnomalarini o'zining yoki sug'urtalovchining axborot tizimi orqali elektron shaklda rasmiylashtirishi mumkin. Bunda agent axborot tizimida shakllantirilgan polislar haqidagi ma'lumotlar o'zaro integratsiya orqali Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga yuborilishi belgilangan [11].

Mazkur tartib ikki jihatdan ahamiyatlidir. Birinchidan, normativ darajada turli dasturiy ta'minotlar o'rtasida ma'lumot almashish zarurati tan olingan. Ikkinchidan, sug'urta bozorida markazlashtirilgan axborot infratuzilmasi — Yagona avtomatlashtirilgan

axborot tizimidan foydalanish amaliyoti mavjud. Shu bilan birga, Open Insurance modeli mavjud integratsiyadan kengroq tushuncha bo'lib, unda uchinchi tomon provayderlari uchun standart APIlar, ma'lumotlarning yagona formati, mijoz roziligini raqamli boshqarish, autentifikatsiya va axborot xavfsizligi talablarining yagona arxitekturasi shakllantirilishi talab etiladi.

Open Insurance tizimlarini shakllantirishda yagona universal model mavjud emas. Yevropa Ittifoqida ko'proq konseptual va regulativ yondashuv shakllanayotgan bo'lsa, Braziliyada Open Insurance alohida tartibga solinadigan texnologik ekotizim sifatida joriy etilgan. Buyuk Britaniyada esa sug'urta Open Finance doirasidagi ma'lumot almashish tizimining tarkibiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda [11].

2-jadval

Open Insurance va Open Finance modellarining qiyosiy tavsifi [11]

Mamlakat / model	Institutsional yondashuv	Texnologik asos	Ma'lumot almashinuvi tamoyili	O'zbekiston uchun ahamiyati
Yevropa Ittifoqi / EIOPA	Ehtiyotkor regulativ-konseptual model	API, interoperabellik, standartlashtirish	Mijoz nazorati, ma'lumotlarni himoya qilish va raqobat muvozanati	Dastlab huquqiy va ma'lumotlar boshqaruvi standartlarini ishlab chiqish
Braziliya / SUSEP	Regulyator boshchiligidagi Open Insurance tizimi	Standart APIlar, xavfsizlik va API qo'llanmalari	Avtorizatsiyalangan ishtirokchilar o'rtasida standart almashinuv	Texnik standart va yagona API katalogini ishlab chiqish uchun amaliy namuna
Buyuk Britaniya / FCA	Open Bankingdan Open Financega kengayish	Umumiy API standartlari, consent va trust framework	Foydalanuvchi boshqaradigan moliyaviy ma'lumotlar almashinuvi	Sug'urtani bank, investitsiya va boshqa moliyaviy xizmatlar bilan integratsiyalash
O'zbekiston / mavjud holat	YAATga tayanuvchi markazlashtirilgan integratsiya elementlari	Sug'urtalovchi, agent va bank axborot tizimlari integratsiyasi	Normativ talab asosidagi ma'lumot uzatish	Standart Open Insurance API va rozilik boshqaruvi qatlamiga evolyutsion o'tish

2-jadvaldan ko'rinadiki, xalqaro tajribada Open Insurance infratuzilmasining asosiy elementi shunchaki API mavjudligi emas, balki APIlarning standartlashtirilganligi va interoperabelligi hisoblanadi. EIOPA turli kompaniyalar tomonidan turlicha texnik

standartlardan foydalanish uchinchi tomon provayderlari uchun qo'shimcha xarajatlar va raqamli ekotizim fragmentatsiyasini yuzaga keltirishini qayd etadi [10].

Braziliya tajribasi esa mazkur muammoni yanada institutsional shaklda hal qilgan. SUSEP


Open Insurance uchun alohida API, xavfsizlik, ma'lumot va xizmatlar ko'lamini hamda mijoz tajribasi bo'yicha texnik qo'llanmalarni belgilagan. 2026-yil may oyi holatiga ko'ra ma'lumot va xizmatlar ko'lamini bo'yicha qo'llanmaning 7.2-versiyasigacha yangilanganligi ushbu tizimning statik emas, balki muntazam ravishda rivojlantiriladigan texnologik standart ekanligini ko'rsatadi [7].

Buyuk Britaniya tajribasida esa Open Finance sug'urtani ham qamrab oluvchi kengroq moliyaviy ma'lumotlar ekotizimi sifatida talqin qilinadi. FCA yondashuvida umumiy API standartlari, shaffof rozilik mexanizmlari hamda ishonch va javobgarlik

tizimi texnologik infratuzilmaning asosiy elementlari sifatida ajratilgan [10].

Mazkur tajribalarni O'zbekiston sharoitiga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirishdan ko'ra, mavjud YAAT va sug'urtalovchilarning axborot tizimlarini saqlab qolgan holda ularning ustida standartlashtirilgan API integratsiya qatlamini shakllantirish samaraliroq yondashuv hisoblanadi.

Tahlil natijalari asosida O'zbekiston sug'urta bozori uchun Open Insurance tizimini markazlashtirilgan yangi ma'lumotlar ombori ko'rinishida emas, balki mavjud axborot tizimlarini bir-biriga bog'lovchi standartlashtirilgan API integratsiya qatlami sifatida shakllantirish taklif etiladi.



2-rasm. O'zbekiston sug'urta bozori uchun taklif etilayotgan Open Insurance-API ekotizimi [10, 11]

Taklif etilayotgan modelda sug'urta kompaniyalari, banklar, FinTech va InsurTech subyektlari, marketpleyslar, sug'urta agentlari va brokerlar Open Insurance API integratsiya

qatlami orqali o'zaro bog'lanadi. YAAT hamda boshqa davlat axborot tizimlari mavjud institutsional infratuzilmaning tarkibiy qismi sifatida saqlanib qoladi. Bunda

ma'lumotlarning barchasini bitta yangi markaziy bazaga ko'chirish talab etilmaydi; ma'lumotlar manba tizimlarida saqlanib, tegishli so'rov bo'yicha standart APIlar orqali uzatiladi.

Modelning markaziy elementi mijozning roziligini boshqarish mexanizmi hisoblanadi. Ya'ni mijoz qaysi ma'lumotlar, qaysi tashkilotga, qanday maqsadda va qancha muddatga taqdim etilishiga rozilik berishi yoki uni bekor qilishi mumkin bo'lishi lozim. Shu orqali Open Insurance ma'lumotlarni cheklanmagan tarzda ochish emas, balki nazorat qilinadigan va audit qilinadigan ma'lumot almashish tizimi sifatida shakllantiriladi.

API Gateway va API katalogi esa turli ishtirokchilarning alohida-alohida integratsiya

protokollarini ishlab chiqish zaruratini kamaytiradi. Masalan, bank bir nechta sug'urtalovchidan kredit bilan bog'liq sug'urta takliflarini olish uchun har bir kompaniya bilan turli texnik integratsiya yaratishi o'rniga yagona standart bo'yicha ishlashi mumkin. Xuddi shunday, InsurTech yoki marketpleys bir nechta sug'urta mahsulotlarini yagona interfeys orqali taqqoslash, hisoblash va rasmiylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Open Insurance tizimini bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmi. Open Insurance infratuzilmasining birdaniga barcha sug'urta turlariga tatbiq etilishi yuqori texnologik va regulativ tavakkalchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli O'zbekiston uchun bosqichli joriy etish metodologiyasi taklif etiladi.

3-jadval

O'zbekistonda Open Insurance-API tizimini joriy etishning taklif etilayotgan bosqichlari [11]

Bosqich	Asosiy chora-tadbirlar	Kutiladigan natija
I. Institutsional tayyorgarlik	Open Insurance tushunchasi va ishtirokchilari maqomini belgilash; ma'lumotlar toifalarini ajratish; rozilik va javobgarlik talablarini ishlab chiqish	Huquqiy va institutsional aniqlik
II. Texnik standartlashtirish	Yagona API spetsifikatsiyalari, API katalogi, autentifikatsiya, ma'lumot formati va xavfsizlik talablarini ishlab chiqish	Interoperabellik va integratsiya xarajatlarining kamayishi
III. Regulatory Sandbox va pilot	Ayrim sug'urta mahsulotlari, banklar va InsurTech platformalari ishtirokida sinov integratsiyalarini amalga oshirish	Texnik va regulativ kamchiliklarni bozor miqyosida joriy etishdan oldin aniqlash
IV. Bozor miqyosida kengaytirish	Standart APIlarni boshqa sug'urta turlari va raqamli platformalarga bosqichma-bosqich tatbiq etish	Yagona raqamli sug'urta ekotizimining shakllanishi
V. Analitik va SupTech bosqichi	Anonimlashtirilgan va agregatsiyalangan ma'lumotlar asosida monitoring, risk tahlili va nazorat vositalarini rivojlantirish	Regulativ monitoring va bozor shaffofligining oshishi

Taklif etilayotgan bosqichli modelning afzalligi shundaki, u amaldagi raqamli infratuzilmani inkor etmaydi, aksincha uni Open Insurance talablariga mos ravishda evolyutsion rivojlantirishni nazarda tutadi. Birinchi bosqichda asosiy e'tibor API yaratishga emas, balki kim, qaysi ma'lumotdan, qanday huquqiy asosda va qaysi maqsadda foydalanishi mumkinligini belgilashga qaratiladi. Chunki

texnologik interfeysning mavjudligi ma'lumotlardan qonuniy va xavfsiz foydalanish muammosini o'z-o'zidan hal qilmaydi.

Ikkinchi va uchinchi bosqichlarda texnik standartlashtirish va regulatory sandbox mexanizmining qo'llanilishi bozorga kiruvchi yangi InsurTech subyektlari uchun integratsiya xarajatlarini kamaytiradi. Yagona API standarti mavjud bo'lmagan sharoitda har bir yangi

platforma har bir sug'urtalovchi bilan alohida integratsiya yaratishga majbur bo'ladi. Standartlashtirilgan arxitekturada esa "bir marta integratsiya – ko'p ishtirokchi bilan ishlash" tamoyiliga o'tish imkoniyati shakllanadi.

Open Insurance modelining iqtisodiy samarasi faqat IT xarajatlarini qisqartirish bilan chegaralanmaydi. Standart ma'lumot almashinuvi sug'urta mahsulotlarini taqqoslash, polislarni avtomatik rasmiylashtirish, mijoz ma'lumotlarini qayta kiritishni kamaytirish, sug'urta hodisasi bo'yicha ma'lumotlarni tezkor tekshirish va yangi embedded insurance mahsulotlarini yaratish imkonini kengaytiradi. Natijada sug'urta kompaniyalarining an'anaviy yopiq biznes-modelidan platformaviy va ekotizimli biznes-modelga o'tishi uchun sharoit yuzaga keladi.

Shu bilan birga, Open Insurance tizimining rivojlanishi kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi, uchinchi tomon provayderlarining javobgarligi va algoritmik diskriminatsiya kabi yangi tavakkalchiliklarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli tizimni rivojlantirishda texnologik ochiqlik bilan ma'lumotlarni himoya qilish o'rtasidagi muvozanat ta'minlanishi zarur. EIOPA ham Open Insurance rivojlanishida innovatsiya va raqobat bilan bir qatorda ma'lumotlar xavfsizligi, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va moliyaviy barqarorlikni birgalikda hisobga olish zarurligini qayd etadi [10].

Umuman olganda, amalga oshirilgan tahlil O'zbekistonda Open Insurance tizimini shakllantirish uchun boshlang'ich institutsional va texnologik elementlar mavjudligini ko'rsatadi. Biroq keyingi rivojlanish bosqichida alohida axborot tizimlarining oddiy integratsiyasidan standartlashtirilgan APIlar, mijoz roziligini boshqarish, interoperabellik va yagona xavfsizlik talablariga asoslangan ochiq sug'urta ekotizimiga o'tish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, taklif etilgan Open Insurance-API

modeli O'zbekiston sug'urta bozorining keyingi raqamli transformatsiyasi uchun metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston sug'urta bozorida Open Insurance va API texnologiyalarini joriy etish sug'urta xizmatlarini raqamlashtirishning keyingi bosqichi sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Standartlashtirilgan APIlar sug'urta kompaniyalari, banklar, FinTech va InsurTech platformalari, sug'urta agentlari va brokerlar hamda boshqa bozor ishtirokchilari o'rtasida tezkor, xavfsiz va nazorat qilinadigan ma'lumot almashinuvi ta'minlash imkonini beradi. Bu esa mavjud alohida axborot tizimlaridan o'zaro integratsiyalashgan raqamli ekotizim modeliga o'tish uchun zarur texnologik asosni shakllantiradi.

Tahlil asosida O'zbekiston uchun mijoz roziligini boshqarish, identifikatsiya va autentifikatsiya, ma'lumotlar standarti, interoperabellik, API Gateway hamda kiberxavfsizlik elementlarini qamrab oluvchi Open Insurance-API integratsiya modeli taklif etildi. Mazkur modelni bosqichma-bosqich, jumladan, institutsional tayyorgarlik, texnik standartlashtirish, pilot sinovlar va bozor miqyosida kengaytirish orqali joriy etish maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan yondashuv sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tezligini oshirish, takroriy ma'lumot kiritishni kamaytirish, integratsiya xarajatlarini optimallashtirish va yangi raqamli sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, Open Insurance infratuzilmasining shakllanishi sug'urta bozorida raqobat, shaffoflik va mijozga yo'naltirilganlik darajasini oshirish bilan bir qatorda, O'zbekiston sug'urta tizimining zamonaviy raqamli moliya ekotizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi. O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2026-yil I-chorak yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2026. <https://napp.uz/storage/files/shares/opedata>
2. Standaert W., Muylle S. Framework for Open Insurance Strategy: Insights from a European Study // The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice. – 2022. – Vol. 47, No. 3. – P. 643–668. – DOI: 10.1057/s41288-022-00264-8.
3. European Insurance and Occupational Pensions Authority (EIOPA). Open Insurance: Accessing and Sharing Insurance-Related Data : Discussion Paper. – Luxembourg : Publications Office of the European Union, 2021. – 49 p. – DOI: 10.2854/013491.
4. Grassi L. In a World of Open Finance, Are Customers Willing to Share Data? An Analysis of the Data-Driven Insurance Business // Eurasian Business Review. – 2024. – Vol. 14, No. 3. – P. 727–753. – DOI: 10.1007/s40821-024-00263-w.
5. OECD. Open Finance Policy Considerations. – Paris : OECD Publishing, 2023. – (OECD Business and Finance Policy Papers ; No. 36). – 48 p. – DOI: 10.1787/19ef3608-en.
6. Florin G., Eling M. Open Insurance: Consumer Preferences, Trust, and Willingness to Pay // The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice. – 2026. – Online First. – DOI: 10.1057/s41288-026-00391-6.
7. Superintendência de Seguros Privados (SUSEP). Manual de APIs do Open Insurance. – Versão 1.5. – Brasília : SUSEP, 2023. – 12 p.
8. Xalikulova G. T., Kodirova S. K. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta ekotizimini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari // Muhandislik va Iqtisodiyot. – 2026. – № 6. – B. 57–63. – DOI: 10.5281/zenodo.20568142.
9. Xakimzoda M. InsurTech platformalari asosida sug'urta xizmatlarini raqamli transformatsiya qilish va moliyaviy samaradorlikni oshirish yo'llari // Green Economy and Development. – 2026. – Vol. 4, No. 5. – DOI: 10.5281/zenodo.20748602.
10. Financial Conduct Authority (FCA). Open Finance Sprint 2025 : Outcomes Report. – London: Financial Conduct Authority, 2025. – 21 p.
11. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2026-yil 20-apreldagi 14-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urta agentlari to'g'risidagi nizom" : O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2026-yil 2-iyunda 3845-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. – Toshkent, 2026. – 10 b.